

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO'K: 111.852:7.01

ESTETIKA TARIXIDA GO'ZALLIK TUSHUNCHASI

ПОНЯТИЕ КРАСОТЫ В ИСТОРИИ ЭСТЕТИКИ

THE CONCEPT OF BEAUTY IN THE HISTORY OF AESTHETICS

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna 

Alfraganus universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrası professor v.b., f.f.d. (DSc)

Annotatsiya

Maqolada go'zallik tushunchasining Sharq va G'arb falsafiy tafakkuridagi tarixiy rivojlanishi tahlil qilinadi. Antik davr mutafakkirlari Sokrat, Platon va Aristotel qarashlari asosida go'zallikning axloqiylik, metafizik g'oya hamda tartib va mutanosiblik kabi tamoyillari ochib berilgan. Sharq estetik tafakkurida Yassaviy, Forobiy, Ibn Sino va Navoiy qarashlari bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, go'zallik tushunchasining paradigmatal transformatsiyasi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari go'zallikni nafaqat estetik, balki axloqiy, diniy va ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq universal tushuncha sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Аннотация

В статье анализируется историческое развитие представлений о красоте в восточной и западной философской мысли. На основе воззрений античных мыслителей Сократа, Платона и Аристотеля раскрываются такие принципы красоты, как нравственность, метафизическая идея, порядок и соразмерность. В сравнительном анализе с эстетическим мышлением Востока рассматриваются идеи Яссауи, Фараби, Ибн Сины и Навои, что позволяет проследить парадигмальную трансформацию понятия красоты. Результаты исследования показывают, что красота трактуется не только как эстетическая категория, но и как универсальное понятие, тесно связанное с нравственными, религиозными и духовными ценностями.

Abstract

The article analyzes the historical development of the concept of beauty in Eastern and Western philosophical thought. Based on the ideas of ancient thinkers such as Socrates, Plato, and Aristotle, the principles of beauty as morality, metaphysical idea, order, and proportion are revealed. Through a comparative analysis with Eastern aesthetic thought, the views of Yassawi, Farabi, Ibn Sina, and Navoi are examined, highlighting the paradigmatic transformation of the concept of beauty. The findings demonstrate that beauty is interpreted not only as an aesthetic category but also as a universal concept closely connected with moral, religious, and spiritual values.

Kalit so'zlar: go'zallik, estetika, axloq, ma'naviyat, ruhiy poklik, metafizika, mutanosiblik, paradigmatal transformatsiya.

Ключевые слова: красота, эстетика, нравственность, духовность, очищение души, метафизика, соразмерность, парадигмальная трансформация.

Key words: beauty, aesthetics, morality, spirituality, purification of the soul, metaphysics, proportion, paradigmatic transformation.

KIRISH

Go'zallik tushunchasi estetik tafakkur taraqqiyotida turlicha ma'no va mohiyatga ega bo'lib kelgan. Antik davrga oid Platon, Aristotel kabi yunon faylasuflarining go'zallik to'g'risidagi qarashlari diqqatimizni jalb etsa, Sharqda Avestodagi go'zallik go'yolari, Forobiy, Ibn Sino, tasavvuf allomalarining go'zallik haqidagi qarashlari, G'arbda esa xristian ta'limoti bilan bog'liq bo'lgan go'zallik to'g'risidagi qarashlar shakllanganini kuzatamiz. Shu asnda go'zallik tushunchasi dinda, adabiyotda, san'atda, tilda, falsafa va axloqda dolzarblashib o'z tarixiga ega bo'lgan. Hozirgi kunga kelib go'zallik tushunchasining amaliy ahamiyati oshib bormoqda, turli fanlar nuqtayi nazaridan o'rganilmoqda, texnologiya va psixologiya, madaniy va maishiy xizmat sohalorida o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda.

G.Mahmudova fikricha, "go'zallik nafaqat tushuncha yoki narsalarning tabiiy belgisi, balki hissiy va mantiqiy birlikning ifodasidir, insonning voqelikda o'zini namoyon etadigan mutlaq g'oyani ma'naviy egallashi natijasidir". "Erkin jamiyat va komil inson haqidagi tasavvurlarimiz bizni go'zallik tushunchasi, go'zallik olamiga yetaklab keladi. Go'zallikni idrok etish va tasavvur etish qanchalik

xilma-xil va qiyin bo'lsa, u haqida fikr yuritish va unga ta'rif berish ham shunchalik mushkul. Go'zallikka baho berilganda esa subyektiv xislatlar narsa va hodisalarga singib ketadi. Go'zallikning har xilligi va uni idrok etishning turli-tuman bo'lishi ham shundadir". [1.96.,124.]

Kimdir go'zallikni insonning ichki olamida deb tushunadi, kimdir go'zallikni tashqi ko'rinish va jismoniy xatti-harakatlarda ko'radi. Hozirgi kunda insonning tashqi go'zalligiga zo'r berib e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy odamlarni tashqi ko'rinishining qanday holatda ekanligi, odamlar e'tiborini qanday jalb qilish mumkinligi ko'proq o'ylantirmoqda. Qadimdan to hozirgi kungacha go'zallik tushunchasi estetik tafakkur taraqqiyotida o'z o'rniga, qonun va qoidalariga ega bo'lib kelgan.

Falsafa tarixidan ma'lumki, insoniyat tarixan etika va estetika kategoriyalariga hamohang hayot qurib kelgan, ya'ni shunchaki yashash emas, go'zal yashashga intilgan, go'zal so'zlashishga e'tibor qaratgan, voqelikka estetik munosabatda bo'lishida ham boy an'analarga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Shu sababdan aytish mumkinki, axloq va estetika xalqimizning moddiy-ma'naviy boyligini ifodalovchi mezon sifatida namoyon bo'lib kelgan. "Go'zallik", "Nafosat", "Nafislik", "Chiroylilik", "Olijanoblik", "Yaxshilik va yomonlik", "Ulug'vorlik va tubanlik" kabi tushunchalar asrlar davomida insoniyatning axloqiy va estetik qarashlarini ifoda etib kelgan. Bu kabi tushunchalar nafaqat ma'naviy merosning asosiy tarkibiy qismi, balki insoniyatning dunyoqarashi, urf-odatlar va madaniy qadriyatlarida ham o'z ifodasini topgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotimizning metodologik asosini ijtimoiy-gumanitar fanlarning falsafiy, tarixiy va madaniy tahlil usullari tashkil etadi. Go'zallik tushunchasining tarixiy transformatsiyasini o'rganishda qator yondashuvlarga asoslanildi. Jumladan, tarixiy-falsafiy yondashuv asosida qadimdan hozirgi kungacha bo'lgan davrda go'zallik haqidagi qarashlarning rivojlanish bosqichlari izchil tahlil qilindi. Qiyosiy tahliliy yondashuvda Sharq va G'arb falsafasi, estetik tafakkur taraqqiyotidagi go'zallik to'g'risidagi qarashlar solishtirildi. Psixologik va sotsiologik metodlar asosida esa, go'zallikning idrok etilishi, emotsional ta'siri hamda jamiyatdagi estetik me'yor va qadriyat sifatidagi o'rni tahlil qilindi. Madaniy yondashuvga ko'ra go'zallik san'at, adabiyot, me'morchilik, xalq og'zaki ijodi va zamonaviy vizual madaniyat kontekstda tadqiq etilgan.

NATIJALAR

Antik yunon falsafasining yirik namoyandalaridan biri Sokrat (mil.av. 469-399 yillar) haykaltaroshlik bilan juda qiziqqan. U go'zallik va xunuklikning nisbiy tafovutlarini ko'rsatib bergan. Sokratning fikricha, bir predmetni ham go'zal, ham xunuk deb baholash mumkin. Chunki bir jihatdan go'zal ko'ringan narsa boshqa bir nuqtayi nazardan xunuk bo'lishi mumkin. Masalan, yaxshilik va yomonlikni olaylik: ochlikda foydali bo'lgan narsa bezgak kasalligida zararli bo'lishi mumkin. Aksincha, bezgakka davo bo'lgan narsa ochlik holatida yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xuddi shuningdek, chopish uchun qulay va go'zal bo'lgan narsa, kurash uchun mos kelmagani sababli xunuk sanaladi. Demak, biror narsa nimaga moslashgan bo'lsa, o'sha nuqtayi nazardan yaxshi va go'zal, nimaga mos kelmasa, o'sha tomondan yomon va xunukdir.

Haykaltarosh Kliton bilan bo'lgan suhbatlarda ham Sokrat uning realizm ruhida yaratilgan asarlarini ko'rib, qoyil qoladi. U shunday deydi: "Sening haykallaringda hayotning o'zi mujassam, chunki sen ularga tirik insonlarning xususiyatlarini singdira olgansan".

So'ng Sokrat qo'shimcha qiladi:

– "Demak, haykaltarosh o'z asarlarida inson qalbining ichki holatini ham ifodalay bilishi kerak". [2.89-91.]

Umuman olganda, Sokrat badiiy hayotning turli sohalariga oid chuqur, tizimli va oqilona fikrlar bildirgan. U san'atning barcha turlarini – badiiy ijod, gimnastika, musiqa, raqs, she'riyat va dostonchilikning mohiyatini izohlagan. Sokratga ko'ra, san'at asarlari insonlarga faqat estetik zavq berish bilangina cheklanmaydi, balki ularni adolatli, vatanparvar, bag'rikeng, mehr-shafqatli bo'lishga, yolg'on va munofiqlikdan, zolimlikdan nafratlanishga undaydi. San'at insonni el-yurtga sadoqatli, yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiluvchi qudratli vositadir. [3.153154.]

Platon (mil.av. 427–347-yillar)ning go'zallik haqidagi qarashlari asosan "Ion", "Fedr", "Bazm", "Qonunlar" va "Davlat" singari asarlarida bayon etilgan. U go'zallik va badiiy ijod masalalarini chuqur tahlil qilib, "Katta Gippiy" dialogida bu mavzuni Sokrat kinoyasi – istehzo va piching uslubida muhokama qiladi. Platon bu erda go'zallikni oddiy utilitar yondashuv bilan cheklash mumkin emasligini ta'kidlaydi. Masalan, "go'zal qiz" degan tasavvurni ham u inkor etadi. U "Nima go'zal?" va "Go'zallik nima?" degan savollarni qo'yib, quyidagi xulosaga keladi: go'zallik – bu o'lcham bilan chegaralanmaydi, ya'ni u katta ham, kichik ham emas; u paydo bo'lib, yo'q bo'lib ketadigan narsa

FALSAFA

emas, bir holatda go'zal bo'lib, boshqa holatda xunukka aylanmaydi. Demak, go'zallik – bu “go'zallik g'oyasi”dir.

Platon “Bazm” (yoki “Pir”) dialogida esa go'zallikni muhabbat bilan bog'laydi. Uning fikricha, muhabbatning oliy bosqichi – bilishga, ya'ni g'oyalarga bo'lgan muhabbatdir. Shu tariqa, Platon dialoglarida “Sokrat kinoyasi” nafaqat dialektik munozara uslubi, balki mustaqil estetik tushuncha sifatida ham namoyon bo'ladi.

Platon estetik ta'limotida estetik kategoriyalardan me'yor va uyg'unlik (garmoniya) masalalari alohida tahlil qilinadi. Unga ko'ra, insondan tashqari boshqa mavjudotlarda bunday uyg'unlik va ritm hissi yo'q. Platon shunday deydi: “Bizning qo'shiqlarimiz va raqslarimizda ishtirok etishimiz uchun xudolar bizga huzur va lazzat bag'ishlovchi uyg'unlik va ritm tuyg'usini ato etdilar. Ana shu tuyg'ular orqali ular bizni harakatlantiradilar va ashula hamda raqsdan birlashganimizda bizning qo'shiqlarimizga yo'l ko'rsatadilar”. [3.160.]

Platon estetikasi keyingi davr estetik tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shu bois uning g'oyalari Yevropa o'rta asrlaridagi estetik risolalarda keng qo'llanilgan. Ayniqsa, Uyg'onish davrida gumanistlar Platonning axloqiy va estetik qarashlariga katta qiziqish bildirgan va ularni sxolastik an'analarga qarshi kurashda samarali qurol sifatida ishlatganlar. [2.93.]

Platon estetikasi, ya'ni uning go'zallik, uyg'unlik, muhabbat va san'at haqidagi qarashlari nafaqat G'arb, balki butun jahon falsafiy tafakkuriga chuqur ta'sir ko'rsatgan. U go'zallikni g'oya darajasida talqin qilgani bois, keyingi davrlarda estetik tafakkur g'oyaviy asosga ega bo'ldi. Shuning uchun ham o'rta asrlarda yozilgan ko'plab estetik risolalarda Platonning g'oyalari asosiy manba sifatida qo'llanilgan. Masalan, o'rta asr Yevropa mutafakkirlari uchun Platonning uyg'unlik va me'yor haqidagi qarashlari diniy-estetik tushunchalarni izohlashda nazariy tayanch bo'lib xizmat qildi.

Uyg'onish davrida esa gumanistlar Platon falsafasiga yangicha qiziqish bilan qaradilar. Chunki ularning asosiy maqsadi insonni ozod tafakkur va ijodkorlik ruhida tarbiyalash edi. Shu bois Platonning axloqiy-estetik qarashlari sxolastik (qotib qolgan diniy) tafakkurga qarshi kurashda qudratli g'oya manbayi sifatida ishlatildi. Uyg'onish mutafakkirlari Platonning san'atni tarbiyaviy vosita sifatidagi qarashlarini qadrladilar va uni ijod erkinligini asoslashda qo'lladilar.

Sharq falsafiy tafakkuriga ta'siriga kelsak, Platonning asarlari bevosita yunon falsafasining tarjimalari orqali musulmon sharqiga kirib kelgan. IX–XII asrlarda Bag'doddagi Bayt ul hikma (Donishmandlik uyi) va boshqa ilmiy markazlarda Platonning asarlari arab tiliga tarjima qilindi. Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi Sharq allomalari Platonning g'oyalarini chuqur o'rganib, ularni o'z falsafiy qarashlari bilan uyg'unlashtirdilar.

Masalan: Farobiy san'atning tarbiyaviy vazifasi haqida gapirar ekan, Platonning “Davlat” asaridagi g'oyalarini davom ettiradi. Ibn Sino musiqaning ruhiy tarbiya vositasi ekanini asoslar ekan, Platonning uyg'unlik haqidagi estetik qarashlariga tayanadi. Sharqdagi tasavvufiy tafakkurda (masalan, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy qarashlarida) go'zallikni ilohiy muhabbat bilan bog'lashda Platonning “Bazm” dialogidagi g'oyalariga yaqinlik seziladi. Shunday qilib, Platon estetikasi Yevropada Uyg'onish gumanizmini shakllantirishga xizmat qilgan bo'lsa, Sharqda ilm-falsafa, adabiyot va tasavvufiy tafakkurining boyishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Platonning “Qonunlar” asarida musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi fuqarolarga yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik tushunchalarini anglatish hamda yosh avlodni axloqiy-estetik jihatdan kamolga yetkazishdan iboratligi ta'kidlanadi. Uningcha, san'at va musiqa inson ruhini yuksaltirishga xizmat qilishi kerak. Platon fikricha, musiqada va qo'shiq san'atida ifoda etiladigan mardona, ulug'vor his-tuyg'ular yaxshi odamlarga manzur bo'ladi, holbuki, bachkana va past darajadagi harakatlar esa engilxulq, ong jihatdan sayoz kishilarga yoqadi.

Afinalik ziyoli shunday deydi: “Ishonchim komilki, insonning bolalik davridagi ilk hissiyotlari – go'zal manzaradan, yaxshi insondan yoki nafis tovushdan lazzatlanishi va yomon, jirkanch narsalardan aziyat chekishi tufayli qalbida go'zallikka moyillik va tartib-intizom shakllanadi”. Uning fikricha, go'zallik va yaxshilikni anglash, ularga doir qat'iy va mustahkam qarashlar, odatda, yoshi kattaroq, tajribali insonlarda qaror topadi. Shunday qilib, go'zallikdan bahramand bo'la oladigan, yaxshi insonlarning tashvishiga hamdard bo'lib, ularning iztiroblarini o'z qalbidan o'tkaza oladigan kishi haqiqiy barkamol inson hisoblanadi.[3.159.]

Platonning fikricha, insonning go'zallik va xunuklik haqidagi bilimlari va bu boradagi e'tiqodiga amal qilishi uning tarbiyalanganlik darajasini ko'rsatadi. Go'zallikdan zavqlana olmaydigan, xunuklikdan esa nafratlanmaydigan kishi ashula yoki raqs san'atida qanchalik mohir

bo'lmasin, axloqiy jihatdan yetuk hisoblanmaydi. Aksincha, ovoz yoki harakatlarda uncha mohir bo'lmasa ham, lekin go'zallikni qadrlab, yomonlik va pastkashlikni rad eta oladigan odamlar musiqaning asl mohiyatini anglay oladilar.

Platon "Qonunlar" asarida ta'kidlaganidek, mumtoz musiqani tushunib, undagi go'zallikni olqishlaydigan va yomonlikni inkor etadigan inson barkamol shaxsdir. Biroq ayrim odamlar yengiltak, bachkana yoki axloqsiz so'zlardan iborat qo'shiqlardan, behayo raqs harakatlaridan zavqlanishlari mumkin. Mardona va oriyatli qo'shiq va raqslar esa, tabiiyki, mard va oriyatli insonlarga manzur bo'ladi. Shuningdek, pastkashlik, qo'rqqoqlik yoki behayolikni ifodalovchi qo'shiq va raqslar faqatgina axloqan zaif, oriyatdan yiroq kishilarga yoqadi. Shu boisdan ham qalb go'zalligini, mardlik va olijanoblikni ifoda etuvchi kuylar, qo'shiqlar va harakatlarning barchasi go'zal, aksincha, ruhiy qashshoqlik, yengiltaklik va beorlikni bildiruvchi kuy va raqslarning barchasi jirkanch hisoblanadi.

"Qonunlar"dagi suhbatlardan birida afinalik ziyoli xorijlik Kliniyga savol beradi: "Bir xil og'ir holatlarda – masalan, mehnat mashaqqatida yoki jang paytida – mardona qalbgga xos harakatlar va nutq bilan qo'rqqoq kishining harakat va nutqi o'xshash bo'ladimi?" Kliniy bunga qat'iy ravishda "Yo'q!" deb javob beradi. Shunda afinalik ziyoli xulosa qiladi: "Demak, mard kishining qo'shiqlari va harakatlari go'zal bo'lsa, qo'rqqoq kishining xatti-harakatlari va qo'shiqlari, tabiiy ravishda, jirkanchdir". [3.161.]

Aristotel (mil. avv. 384–322 yillar) qadimgi yunon falsafasining eng buyuk namoyandalardan biridir. Aristotel estetik qarashlarida go'zallikni borliqning ajralmas xususiyati sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, go'zallik tasodifiy emas, balki narsalarning ichki mohiyatidan kelib chiqadi. Platon singari g'oyalar olamida emas, balki real moddiy narsalarda ham go'zallik mavjud bo'lishi mumkin. Aristotel fikricha, har qanday go'zallik uchta asosiy shartga bog'liq: tartib (kosmos), muvozanat (garmoniya) va o'lchov (me'yor). Demak, go'zal narsa tartibli, mutanosib va me'yoriy bo'lsa, u inson qalbida estetik zavq uyg'otadi.

Aristotel san'atni ham go'zallikni aks ettiruvchi va uni inson ongiga etkazuvchi faoliyat deb ko'radi. U "Poetika" asarida san'atning mohiyatini tahlil qilib, uni taqlid (mimesis) tushunchasi orqali izohlaydi. Biroq bu taqlid oddiy nusxa ko'chirish emas, balki voqelikni badiiy qayta ishlash va unga ma'no berishdir. San'at asarining go'zalligi ana shu ma'no, tuyg'u va g'oyaviy mazmun orqali namoyon bo'ladi.

Aristotel go'zallikni axloq bilan ham uzviy bog'laydi. Unga ko'ra, san'at va adabiyot kishilarda nafaqat zavq uyg'otadi, balki ma'naviy poklanish – "katarsis"ga erishishga yordam beradi. Masalan, tragediya inson qalbida qo'rquv va rahm-shafqat tuyg'ularini uyg'otib, ularni yengillashtiradi va tozalaydi. Demak, go'zallik nafaqat tashqi ko'rinishda, balki insonning ichki ruhiy tajribasida ham muhim tarbiyaviy kuchga ega. Aristotelning bu qarashlari keyingi davr estetik tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, Forobiy, Ibn Sino kabi Sharq mutafakkirlari uning tartib, muvozanat va me'yor haqidagi g'oyalarini o'z ilmiy-estetik qarashlariga uyg'unlashtirdilar. Natijada Aristotelning go'zallik haqidagi talqini nafaqat Yevropa, balki Sharq estetik tafakkurining ham muhim nazariy poydevoriga aylandi.

U o'zining mashhur "Poetika" asarida tragediya nazariyasini, "Ritorika" asarida notqlik san'ati mohiyatini, "Siyosat" asarida estetik tarbiya nazariyasini, "Qalb haqida" risolasida esa tasavvur va xayol jarayonlarini tahlil qilgan. Shu bois, qadimgi yunon tafakkurida poetika va ritorika masalalari sof adabiy yoki amaliy san'at doirasida emas, balki falsafiy muammo sifatida ham talqin etilgan. Sokrat, Platon, Aristotel, Demokrit, Ksenofan, Gorgiy, Pifagor, Empedokl, Demosfen, Fokion, Protagor kabi mutafakkirlar estetik nazariya va ritorika masalalarini keng falsafiy muhokama qilgan va ularni falsafaning tarkibiy qismi sifatida shakllantirganlar. A.F. Losevning ta'kidlashicha, mumtoz yunon madaniyati davrida davlat, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarda adolatparvarlik, vijdon va e'tiqod, mardlik va fidoyilik kabi yuksak insoniy fazilatlar qadrlangan hamda ularning ijtimoiy-estetik ahamiyati yuqori baholangan.

Aristotelning estetika haqidagi qarashlari qadimgi yunon falsafiy tafakkurida muhim bosqich hisoblanadi. U go'zallikni subyektiv hissiyot yoki faqat ruhiy lazzatlanish emas, balki narsalarning obyektiv sifatleri bilan bog'laydi. Donishmand fikricha, go'zallikning asosiy mezonlari uchta omil orqali belgilanadi: mutanosiblik (proporsiya), tartib (kosmos) va aniqlik (aniq shakl). Agar narsalarda ushbu sifatlar mujassam bo'lsa, u go'zal hisoblanadi. Demak, Aristotel uchun go'zallik tasodifiy yoki shaxsiy didga bog'liq narsa emas, balki mavjudlikning o'zida mujassam bo'lgan umumiy va zaruriy xususiyatidir.

FALSAFA

Aristotel estetikani taqlid nazariyasi bilan bog'lab rivojlantiradi. Unga ko'ra, taqlid barcha insonlarga xos bo'lgan universal qobiliyatdir va aynan shu xususiyat odamlarni hayvonlardan ajratib turadi. Inson san'at orqali tabiatni yoki ijtimoiy hayotni takrorlamaydi, balki uni qayta ishlaydi, umumlashtiradi va yangi shakl beradi. Shu sababli taqlid insonlarga chuqur estetik huzur baxsh etadi, chunki ular asarda o'z hayotiy tajribasining yangi va mukammal ifodasini ko'radilar.

Aristotel, ayniqsa, tragediya nazariyasini chuqur ishlab chiqqan. "Poetika" asarida u tragediyaning asosiy vazifasi tomoshabinning ruhini poklash – ya'ni katarsis ekanligini ta'kidlaydi. Tragediyada insonning fojiali qismati, uning ehtirolari va kurashlari sahnaga chiqariladi, bu esa tomoshabinlarda ham qo'rquv, ham achinish tuyg'ularini uyg'otadi. Natijada, inson ruhiy jihatdan yuksaladi, his-tuyg'ulari muvozanatga keladi. Aristotel shu orqali san'atning inson tarbiyasidagi o'rni va ma'naviy vazifasini asoslaydi.

U komediya haqida ham fikr yuritadi. Komediya yovuzlikni mutlaq tarzda yovuzlik sifatida ko'rsatmaydi, balki insonning kulgili, oddiy va zarar etkazmaydigan nuqsonlarini ifodalaydi. Shu bois komediya xunuklikni emas, balki engilgina beo'xshovlik va qusur orqali kulgini uyg'otadi. U shunday yozadi: "Kulgili narsa hech kimning qalbini og'ritmaydigan va hech kimga zarar keltirmaydigan ayrim nuqson yoki g'ayritabiiylikdir". [3.171.] Bu qarash san'atning turli janrlarini falsafiy asosda farqlash imkonini beradi.

Aristotel she'riyatni ham taqlid san'ati sifatida ko'rsatadi. Tarixchi bilan shoir o'rtasidagi farqni tushuntirar ekan, u shoir voqelikni qanday bo'lsa shunday tasvirlamaydi, balki "bo'lishi mumkin bo'lgan narsani" ifodalaydi, umumiylikni ochib beradi. Shu ma'noda she'riyat falsafaga yaqin turadi, chunki u voqelikning umumiy qonuniyatlarini badiiy shaklda ifodalaydi.

Aristotelning go'zallik haqidagi qarashlari uning "kalokagatiya" haqidagi ta'limoti bilan chambarchas bog'liq. "Kalokagatiya" tushunchasi jismoniy go'zallik bilan axloqiy komillikning uyg'unligidir. Donishmand nazarida, haqiqiy yunon fuqarosi nafaqat jismoniy jihatdan sog'lom va kuchli, balki ma'naviy fazilatlar bilan ham boy bo'lishi lozim. Go'zallik va ezgulik bir-biridan ajralmas, ular inson komilligini belgilovchi ikki tomon sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, Aristotel estetikasi go'zallikni obyektiv mavjudlik sifatida tushuntiradi, uni tartib, mutanosiblik va aniqlik mezonlari bilan belgilaydi. Uning nazariyasi san'atning jamiyatdagi tarbiyaviy vazifasini asoslab, tragediya va komediya orqali inson ruhiy hayotini yuksaltirishni ko'zlaydi. Shu bilan birga, u go'zallikni axloqiylik va ma'naviyat bilan uyg'un holda talqin qilib, keyingi davrlarda, ayniqsa Uyg'onish davri va klassik estetikada chuqur iz qoldirgan.

Aristotel estetik qarashlarida go'zallik masalasi markaziy o'rin tutadi. Unga ko'ra, go'zallikning mezonlari uch asosiy jihatda namoyon bo'ladi: tartib, mutanosiblik va aniqlik. Tabiatdagi buyum va hodisalar aynan shu uchlik birligida o'zining go'zalligini ko'rsatadi. Donishmand fikricha, go'zallikning eng yuksak darajadagi ifodasi tirik mavjudotlarda, ayniqsa insonda o'z aksini topadi. Chunki inson o'zida nafaqat tashqi uyg'unlikni, balki ma'naviy va aqliy go'zallikni ham mujassamlashtiradi.

Aristotel, shuningdek, go'zallikni miqdorning cheklanganligi bilan ham bog'laydi. Unga ko'ra, mutanosib va mukammal shakllar ortiqcha yoki yetishmaydigan jihatlardan xoli bo'lishi kerak. Go'zallikning eng muhim belgisi sifatida u uzviy yaxlitlikni ko'rsatadi. Har qanday mukammal narsa ibtido (boshlanish), markaz (rivojlanish) va intihodan (yakun) tashkil topadi. Shu tartibdagi yaxlitlik mavjud bo'lmaganda, estetik mukammallik yuzaga kelmaydi.

Aristotelgacha bo'lgan falsafiy an'anada, xususan, Platon qarashlarida, go'zallik va ezgulik ko'pincha aynanlashtirilardi. Aristotel esa bu ikki tushunchani farqlash zarurligini ta'kidlaydi. Uning nazarida, ezgulik faqat harakat, amaliy faoliyat orqali voqe bo'ladi, go'zallik esa harakatsiz ham mavjud bo'lishi mumkin. [4.326.] Bu qarash estetikani axloqdan mustaqil, lekin yaqin soha sifatida rivojlantirishga xizmat qildi.

Sharq estetik tafakkuri taraqqiyotida Aristotelning bu qarashlari muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, Forobiy o'zining musiqaga oid risolalarida go'zallikni tartib va mutanosiblik bilan bog'lagan bo'lsa, Ibn Sino "Kitob ush-shifo" va "Kitob un-najot" asarlarida go'zallikni uzviy yaxlitlik hamda mukammal shakl bilan izohlagan. Ular Aristotel singari go'zallikni faqat tashqi husn emas, balki ichki uyg'unlik va tartibning natijasi sifatida talqin qilganlar. Shunday qilib, Aristotelning estetik qarashlari, xususan, go'zallikni tartib, mutanosiblik, aniqlik va yaxlitlikda ko'rishi, uni ezgulikdan farqlab tahlil qilishi, nafaqat G'arb, balki Sharq falsafiy tafakkurida ham estetik kategoriyalarning shakllanishi va taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.[5.231.]

MUHOKAMA

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi faqat G'arb falsafasiga xos bo'lmay, Sharq tafakkuri ham bu masalaga o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqqan. Sokrat, Platon va Aristotelning qarashlari Sharq donishmandlari, xususan, Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlarning estetik qarashlari bilan qiyosiy tahlil qilinsa, paradigmalar o'zgarishlar yanada yaqqolroq ko'rinadi.

Sokrat go'zallikni axloqiylik bilan uyg'un holda tushuntirgan bo'lsa, Sharq mutafakkirlarida ham bu tamoyil davom etadi. Masalan, Yassaviy hikmatlarida haqiqiy go'zallik qalb pokligi, taqvo va ruhiy kamolot bilan belgilanadi. Bu yerda go'zallik tashqi joziba emas, balki insonning ichki olami bilan chambarchas bog'liq. Transformatsiya shundaki, Sokrat g'oyasi jamiyat axloqiy tarbiyasi doirasida ko'rilgan bo'lsa, Sharqda u diniy-irfoniy mazmun kasb etib, ruhiy poklanish konsepsiyasiga aylangan.

Platon go'zallikni mutlaq g'oyalar olamiga ko'taradi. Sharq estetik tafakkurida esa bu yondashuv ilohiylik bilan uzviy bog'lanadi. Masalan, Forobiy musiqa nazariyasida go'zallikni nafaqat ruhiy zavq manbayi, balki insonni ilohiy haqiqatga yaqinlashtiruvchi vosita sifatida talqin qiladi. Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida ham go'zallik ilohiy mukammallikning dunyoviy ko'rinishi sifatida talqin etiladi. Bu transformatsiya Platonning metafizik "g'oya" konsepsiyasining Sharqda irofiy-ilohiy paradigmaga ko'chganini ko'rsatadi.[6.59-63.]

Aristotel go'zallikni obyektiv mezonlar – tartib, mutanosiblik, aniqlik va yaxlitlik orqali tushuntiradi. Sharq tafakkurida, xususan, Ibn Sino asarlarida bu qarash ilmiy-amaliy asosga ko'chadi: u go'zallikni tibbiyot, musiqa va falsafiy-axloqiy tarbiya bilan bog'laydi. Aristotel tragediya nazariyasida ilgari surgan katarsis g'oyasi esa Sharqda tasavvufiy "ruhiy poklanish" ta'limoti bilan uyg'unlashadi. Transformatsiya shundaki, Aristotelning estetik mezonlari ilmiy-ratsional asosda shakllangan bo'lsa, Sharqda ular ma'naviy-axloqiy va diniy mazmun bilan boyitilgan.

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi turli davrlarda va madaniy muhitlarda turlicha talqin etilgan. Suqrot, Platon va Aristotel kabi buyuk yunon faylasuflari go'zallikni falsafiy kategoriyaga aylantirib, uni axloq, g'oya va obyektiv mezonlar bilan bog'lagan bo'lsalar, Sharq tafakkurida bu qarashlar yangi mazmun kasb etib, ma'naviy-irfoniy, diniy va axloqiy asoslar bilan boyitilgan. Masalan, Platon go'zallikni mutlaq g'oyalar olamiga daxldor deb bilgan. Uning fikricha, moddiy dunyodagi barcha go'zalliklar faqat "Go'zallik g'oyasi"ning in'ikosidir. Bu qarash Sharqda Forobiy va Alisher Navoiy ijodida ilohiylik bilan uzviy bog'landi. Forobiy musiqani insonni oliy haqiqatga olib boruvchi estetik vosita deb talqin etgan bo'lsa, Navoiy go'zallikni "ilohiy mukammallikning dunyodagi jilvasi" sifatida ko'radi. Demak, Platonning metafizik yondashuvi Sharqda ilohiy-irfoniy paradigmaga transformatsiyalangan.[7.135.] Natijada go'zallik g'oyasi falsafiy-abstrakt darajadan ruhiy va diniy kamolot bilan bog'liq holda boyidi.

G'arb tafakkurida shakllangan go'zallik paradigmalari Sharqda yangicha talqin qilinib, chuqur ma'naviy va diniy mazmun kasb etgan. Suqrotning axloqiylikka asoslangan qarashlari Yassaviyda ruhiy poklik konsepsiyasiga, Platonning metafizik g'oyalari Forobiy va Navoiyda ilohiy mukammallik konsepsiyasiga, Aristotelning ratsional-mezonli ta'limoti Ibn Sinoda ilmiy-amaliy va ruhiy poklanish konsepsiyasiga aylangan. Bu transformatsion jarayon estetik tafakkurning madaniyatlararo almashinuvi va uzviy rivojlanishini ko'rsatadi.

XULOSA

Sharq va G'arb falsafasidagi qarashlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, go'zallik tushunchasi barcha davrlarda inson tafakkurining markaziy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Antik falsafada u axloqiylik va tartib bilan bog'langan bo'lsa, Sharq tafakkurida ruhiy poklik va ilohiy mukammallik in'ikosiga aylangan.

Sokratning axloqiylik haqidagi qarashlari Yassaviyda ruhiy poklanish mezoniga, Platonning metafizik g'oyasi Forobiy va Navoiyda ilohiy haqiqatga, Aristotelning tartib haqidagi ta'limoti esa Ibn Sinoda ilmiy-amaliy va ma'naviy mezonga transformatsiyalangan. Demak, go'zallik faqat estetik emas, balki axloqiy-ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'un tushuncha bo'lib, insoniyat merosini birlashtiruvchi universal hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Махмудова Г ва бошқалар. Ўзбекистонда ислохотлар жараёнини таҳлил этиш ва амалга оширишнинг концептуал-фалсафий методологияси. – Тошкент: Noshir, 2020. – 250 б.
2. История эстетики. Памятники мировой эстетической мысли: в 5 т. Т. 1. – Москва: Издательство Академии художеств СССР, 1962. – 780 с.

FALSAFA

3. Болтабоев Х., Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи (I жилд: Қадимги давр). – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2013. – 154 б.
4. Аристотель. Сочинения: в 4 т. Т. 1. – М.: Мысль, 1976. – 550 с.
5. Tursunkulova Sh.T. Falsafa tarixida go'zallik to'g'risidagi falsafiy qarashlar // O'zMU xabarlari. – Toshkent, 2022. 1/2/1. – B.231-234.
6. Tursunkulova Sh.T. Estetik paradigmada san'at to'g'risidagi bilimlar rivoji // SamDU Ilmiy Axborotnomasi. – Samarqand, №2 (126) 2021. – B.59-63.
7. Tursunkulova Sh.T. Tasavvuf ilmida inson go'zalligi paradigmasi. Monografiya. – Samarqand: SamDChTI, 2023. – 135 b.